



KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHUVCHI ORGANLAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Rahimjonov Kamronbek Ilxomjon o'g'li

Jamoat xavfsizligi universiteti magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7440471>

ARTICLE INFO

Received: 04th December 2022

Accepted: 14th December 2022

Online: 15th December 2022

KEY WORDS

Korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha huquqni muhofaza qiluvchi organlar, korrupsiyaga qarshi kurashish agentliklari, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun, korrupsiyaga qarshi monitoring.

ABSTRACT

Maqolada O'zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirishga oid mavjud muammo va kamchiliklar tahlil qilinib, xalqaro institutlarning tavsiyalari asosida qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida sud-huquq masalalarini tartibga solish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi, parlamentning rolini yanada oshirish hamda huquqni muhofaza qilish va sud organlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy o'sishini yanada kuchaytirish, xalq farovonligini oshirish va mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilash bo'yicha strategik vazifalarni hal etish davlatning

korrupsiyaga qarshi siyosatini samarali amalga oshirishni ta'minlash, shuningdek, korrupsiya sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish bo'yicha yangi tizimli chora-tadbirlarni qabul qilishni talab etadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning xavfli oqibatlarini bartaraf etish har bir davlat va jamiyatning asosiy vazifasi bo'lgan(1). Davlat bu borada o'zining qonunga asosan tashkil etilgan organlari faoliyatini tashkil etish va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati borasida tegishli qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish bilan o'z vazifalarini bajarib keladi. Ma'lumki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlatning huquqiy tizimini himoya qilish va huquqni muhofaza qilish sohasidagi asosiy funksiyalarni bajarish uchun tuziladi.



Korrupsiyaga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zlariga berilgan vakolatlar doirasida harakat qilishi va muayyan samaradorlikka erishishlarida ularning faoliyatini muvofiqlashtirish muhim o'rin tutadi. Muvofiqlashtirish avvalambor, huquqiy vositalar bilan o'zaro munosabatlarni tashkil etishdan iborat. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiya va boshqa jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirib borish vakolati aksariyat hollarda davlatning qonunchilik nazorati vakolati berilgan organi tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi va uning hududiy kengashlari tomonidan amalga oshirilmogda. So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida erishilgan yutuqlarga qaramasdan, ushbu illatning salbiy ta'sirlaridan xalos bo'la olganimiz yo'q. "Transparency International" nodavlat-xalqaro tashkiloti tomonidan 2021-yilda dunyo mamlakatlarining korrupsiya bo'yicha e'lon qilingan reytingida O'zbekiston 180 ta davlat ichida 140-o'rinni egallagan. 2020-yilda O'zbekiston 146-o'rinni egallagan edi. O'zbekistonda korrupsiyaviy jinoyatlarning aksariyatini mansabdorlik jinoyatlari tashkil qiladi. Jamiyat rivojlangani sari mamlakatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ham vakolatlari va funksiyalari o'zgarib, davlatning siyosatiga moslashib boradi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini

muvofiqlashtirishni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimini chuqur o'rganish talab etiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-2833- sonli qarori[12]da nafaqat korrupsiyaga oid, balki, barcha turdagi huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishni amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermasligi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi choratadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalarni bermayotganligi ko'rsatilgan. Vakolatli organlarning yetarli darajada tashabbus ko'rsatmayotganligi, lozim darajadagi idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning o'zaro nomutanosibligi alohida ta'kidlangan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish, qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish asosiy maqsad qilib belgilandi.



Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan mazkur qaror bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimi joriy etilmoqda.

Bunda, reyting baholash beshta yo'nalish bo'yicha belgilangan indikatorlar asosida amalga oshiriladi:

- davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi va amaliyotga tatbiq etilganligi;

- korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

- davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

- xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi.

Reyting baholash tizimi, dastlab eksperiment tariqasida o'z faoliyatida korrupsiyaga qarshi menejment tizimini joriy etayotgan 26 ta davlat tashkilotlari faoliyatiga, 2022 yil 1 iyuldan boshlab barcha davlat tashkilotlari faoliyatiga joriy etiladi.

E'tiborlisi, reyting baholash "E-Anticor.uz" elektron platformasi orqali tashkil etiladi. Bu esa reyting shakllantirishda to'liq ob'ektivlik va shaffoflikni ta'minlaydi.

Reyting baholash ishlarida fuqarolik jamiyati instituti vakillarining ishtiroki ham nazarda tutilmoqda. Xususan, reyting baholash natijalarining xolisligini tekshirish maqsadida kamida 30 foizi fuqarolik jamiyati institutlari vakillaridan iborat bo'lgan Reyting baholashni mustaqil amalga oshiruvchi ekspertlar guruhi shakllantiriladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" toifalarga ajratiladi.

Bunda, faoliyati:

"yaxshi" deb baholangan davlat tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ijobiy tajribasini ommalashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanadi va amalga oshiriladi;

"qoniqarli" deb baholangan davlat tashkilotlariga ularning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha tavsiyalar kiritiladi;

"qoniqarsiz" deb baholangan davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va ularning ushbu yo'nalishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqiladi, uning ijrosi yuzasidan tegishli rahbarlarning hisobotlarini har chorakda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning yig'ilishlarida eshitiladi. Ketma-ket ikki yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "qoniqarsiz" deb topilgan davlat tashkilotlari rahbarlariga belgilangan tartibda intizomiy javobgarlik choralarini qo'llash masalasi ko'rib chiqiladi.(2)

Ushbu reyting baholash bo'yicha milliy tizim davlat organlari va tashkilotlarida



korrupsiyaga qarshi kurashishga yagona yondashuvni shakllantirish, rahbarlarning ushbu yo'nalishdagi mas'uliyatini oshirish va mamlakatning tegishli xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2019 yildagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi 5729-sonli Farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha maxsus komissiya tuzilib,(6) huquqni muhofaza qilish organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini o'rganish komissiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Tadqiqot bo'yicha o'rganilgan nazariy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar va amaliyotni tahlili asosida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish samaradorligini ta'minlashda quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Bizningcha "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish" deganda birinchidan, "korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat siyosati borasida va ikkinchidan esa, korrupsion jinoyatlarni fosh etish va profilaktika qilish borasidagi faoliyat sifatida tushunish mumkin". Har qanday muvofiqlashtirish faoliyati huquqiy asoslarni shakllantirishdan boshlanadi. 2012-yildagi "Korrupsiyaga qarshi kurashuvchi organlar faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida Jakarta bayonoti" (Jakarta prinsiplari)ning 3-prinsipida ham davlatning korrupsiyaga qarshi kurashish

faoliyatini muvofiqlashtiruvchi organi tegishli va barqaror huquqiy asoslar, masalan Konstitutsiya yoki maxsus qonun asosida yaratilishi kerak. Jumladan, Rossiya Federasiyasining "Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish to'g'risida"gi va Qozog'iston Respublikasining "Qonun ustuvorligi, qonuniylik va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha Qozog'iston Respublikasi Muvofiqlashtiruvchi kengashi to'g'risida"gi Prezident farmonlari mavjud. Mazkur davlatlarning yuqorida ko'rsatilgan huquqiy hujjatlarida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish subyektlari, prinsiplari, shakllari va asosiy yo'nalishlari aniq tartibga solib qo'yilgan. O'zbekistonda ham jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish ishida ishtirok etayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlari asosan tashkiliy xarakter kasb etishini ko'rishimiz mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirishda elektron boshqaruv imkoniyatlardan foydalanish lozim. Muvofiqlashtirish natijalari shu organ yoki korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zidagina qolib ketmasligi, parlament yoki jamiyatning manfaatlarini himoya qiluvchi boshqa tuzilmalar, shuningdek, fuqarolarni xabardor qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar har doim ham jinoyat bo'lavermaydi. Bu esa amaliyotda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ya'ni ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaruvchi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni



aniqlash va fosh etish jarayonida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirish qonunchilikda nazarda tutilmagan. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunining

15-moddasida belgilangan tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazish uchun asoslar qatorida, ushbu moddaning 1-qismi uchinchi xatboshisini "korrupsiyaga oid huquqbuzarlik bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy ishlar" jumalari bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 12.01.2022 yildagi PQ-81-son
2. <https://anticorruption.uz/uz/item/2022/01/13/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-ishlarining-samaradorligini-reyting-baholash-tizimi-joriy-etiladi>
3. Иманов И. А. Прокурорский надзор за исполнением законов о противодействии коррупции в Республике Казахстан: дис. ... канд. юрид. наук: 12.00.11 / Акад. Генеральной прокуратуры Рос. Федерации. – М., 2017. – С. 251.
4. Абдиров Н.М., Кобзарев Ф.М. Координационная деятельность прокуратуры Республики Казахстан по противодействию коррупции: опыт правового и организационного обеспечения // Вестн. Акад. Генеральной прокуратуры Рос. Федерации. – 2015. – №5 (49). – С. 47-56.
5. Patrick Meagher. Anti-Corruption Agencies: A Review of Experience. Office of democracy and governance Anticorruption. (https://pdf.usaid.gov/pdf_docs/Pnadm208.pdf)
6. Po'latov B.X. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlar ijro etilishi ustidan prokuror nazorati. O'quv qo'llanma. - T.: Toshkent tezkor bosmaxonasi, 2007. - 312 b.
7. URL..<https://www.acauthorities.org/news/principles-anti-corruption-agenciesconference>. Принципы антикоррупционного агенства. Джакарта, 26-27 ноября 2012 г. (International Conference Principles for Anti-Corruption Agencies). Джакартский принцип 15 о публичной отчетности.
8. ОЭСР/АКС (2019), Отчет о четвертом раунде мониторинга Узбекистана, стр. 245. <https://lex.uz/docs/-1461329>